

Usmonova Lola Komil qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU jurnalistika fakulteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi magistri lola.usmonova.94@mail.ru

TABRIK MATNLARINING GENDER XOSLANISHI

Annotation: language is a phenomenon associated with a person's life, his social activities. In order to know what social task the linguistic sign is, how to use it, it is also necessary to pay attention to what social system a person lives in today's day is one of the main tasks of linguistics. Under such conditions, the gender characteristics of the individual should also be taken into account, no doubt. The concept of gender, which initially meant only biologically differentiating, is being interpreted as the worldview, culture, decency inherent in men and women, as well as their speech and language, to this day. It is even being studied as a separate field. This, of course, shows the importance of gender counseling.

The issue of gender social inclusion in sociolinguistic research requires a separate study. Because gender is the concept that determines the role and role of a man and a woman in society. It was tried to give the results of observations on this direction, one of the youngest areas of study of biological sexes in the social environment, in this article. In particular, attention was paid to issues such as the importance of gender in sociology, its participation in processes ranging from physical characteristics to social roles, the role of gender in the social characterization of greeting texts.

Descriptive, comparative, eksperiment techniques were used in the article.

Keywords: social inclusion, gender, genderolingvistik studies, congratulatory text, social role

Til kishilik jamiyatida uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratilgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarni saqlaydigan va avloddan – avlodga yetkazib beradigan asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi [Sharipova, 2016: 80]. Darhaqiqat, agar til kishilar orasida vositachilik xizmatini qilmaganida edi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mahmud Qoshg'ariy kabi buyuk allomalarning bizga qoldirgan meroslaridan bahramand bo'la olmagan bo'lar edik, shu bilan birga til ham taraqqiy etmagan bo'lar edi. Mana shu hodisalarni yuzaga chiqarishda sotsiolingvistik tadqiqotlarning o'rni beqiyosdir. Professor N.Mahmudov ham bu borada "...til va jamiyat munosabatlarini tadqiq etuvchi sotsiolingvistik yo'nalishi bugun dunyo tilshunosligida eng ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida taraqqiy topib borayotganiga qaramasdan, bizning tilshunosligimizda sotsiolingvistik tadqiqotlar hali ko'lam kasb etib ulgurganicha yo'q" deya ta'kidlaydi [Mahmudov, 2016: 116]. Bu borada X.Yo'ldoshevyaning fikri ham o'rinli: "Sotsiolingvistlar oldida jonli so'zlashuv nutqini o'rganish muammosi turibdi. Jonli so'zlashuv nutqining shevalarda xoslanishi, yoshlar nutqining o'ziga xos tomonlari yechimini kutayotgan masalalardan biridir" [Yo'ldasheva, 2017: 20]. Shu o'rinda aytish joizki, tabrik matnlarini sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilish, ya'ni ularni erkak va ayollar, bolalar, yoshlar va keksalar nutqiga xosligini o'rganish, shuningdek ularning jamiyatdagi o'rnini aniqlash masalalari ham o'z navbatida alohida tadqiqot talab qiladi.

Til insonning ichki dunyosini, uning ma'naviyati-yu madaniyatini, oilaviy muhiti va tarbiyasini, shuningdek, ijtimoiy mavqeyini ham ochib beruvchi vosita hisoblanadi. Inson nutqi o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lib, bu o'zgaruvchanlik bir qator omillar ta'sirida yuzaga keladi. Bunday omillar qatoriga kommunikantning jinsi, yoshi, ijtimoiy holati, muloqot vaqti, muloqot vaziyati kabilarni kiritishimiz mumkin. Bundan sotsiolingvistikada nutq kommunikantlarning jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilariga qarab ixtisoslashadi, degan xulosaga kelamiz.

Ma'lumki, so'zlovchi qaysi jins yoki toifa vakili bo'lishidan qat'i nazar hamma uchun yagona bo'lgan lisoniy tizimdan foydalanadi. Ammo har bir shaxsning nutqiy yoki lisoniy qobiliyati va imkoniyat darajasi turlicha bo'lishi aniq. Gender lingvistikasi bu kabi masalar tadqiqi bilan shug'ullanuvchi ilmiy yo'nalishdagi gender tadqiqotlar tarkibiga kiradi. Bu yo'nalishda lingvistik tushunchalar yordamida gender o'rganiladi. Gender lingvistikasi sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarida

kattalar nutqi, o'smirlar nutqi, bolalar nutqi bilan bir qatorda ayol va erkak nutqi, o'g'il va qiz bolalar nutqidagi farqlar nazarda tutiladi.

Gender tushunchasining zamonaviy tilshunoslik paradigmasiga kirib kelib, atama sifatida shakllanishi XX asrning 60-yillariga to'g'ri keladi. G'arb tilshunosligida gender sohasida bir qancha ishlar olib borilgan va ularda gender atamasiga turlicha yondashishlarni, munosabatlarni va talqinlarni uchratamiz. Xususan, G.Brandt gender – madaniyat ta'siri ostida bo'ladigan, ma'naviy jihatdan ayol va erkaklarning nutqiy, xulq-atvoriy tomonlarini baholay oladigan xususiyatlar majmuidir deb ta'kidlaydi. O'zbek tilshunosligida ham bu borada qator tadqiqotlar olib borilgan. Professor M.Qurbonova ikki jins o'rtasida o'ziga xos bo'lgan axloq me'yorlari haqida fikr yuritib, "ana shunday axloq me'yorlari ichida muloqot xulqi masalasi markaziy masalalardan biri bo'lganligi bois genderologik muammolarni lingvistik aspektida o'rganish zarurati tug'ildi va gendrolingvistika ana shu zarurat tufayli alohida bir soha sifatida paydo bo'ldi", deya e'tirof etadi [Kurbanova, 2014: 43].

70-yillarda gender sohasida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar orasida ayol tadqiqotchi, Kaliforniya universitetining professori R.Lakoff ham bo'lib, uning izlanishlari natijasining mahsuli bo'lgan "Language and Woman's Place" kitobi e'tibor qozondi. Tilshunos ushbu kitobini asosan til, ayol va uning jamiyatdagi o'rniga bag'ishlagan. Bundan tashqari, nafaqat erkak va ayollardagi, balki yosh bolalardagi genderlik xususiyatlarini ham nutqiy jihatdan farqlagan va shu bilan birga ayollar nutqiga xos bo'lgan bir nechta xususiyatlarni yoritib bergan. Ayollar tasdiqlovchi so'roq gaplardan, undov va erkalash so'zlaridan erkaklarga qaraganda keng foydalanishini u ta'kidlab o'tgan [Lakoff, 1975: 48-49].

Jan Jak Russoning fikriga ko'ra, erkak va ayol o'rtasidagi o'xshashlik, avvalo, ularning bir biologik tur vakillari ekanligidir: ular ko'p jihatdan tengdirlar – organlar, ehtiyojlar, qobiliyatlar. Biroq jamiyat a'zolari sifatida teng emas. Bunga sabab, ularning tug'ma xususiyatlaridir. Erkaklar uchun bu xususiyatlar – mustaqillik, rostgo'ylik, dadillik, qo'rqmaslik va h.k.lar; ayollar uchun esa uyatchanlik, ayyorlik va o'zgalar fikri bilan hisoblashish va h.k.lar. Russo fikriga ko'ra ayollar ancha teran fikr va aqlga egadirlar. [Abduxalilova, Rahmatov, Xudayberdiyeva, 2021: 1341]

Ko'rinib turganidek o'tmish arboblari jinslar o'rtasidagi farqlarni qayd etishgan va bu ularning fikricha, tabiiy holdir. Bunday gender stereotiplar hech qanday isbot talab etmaydi. Zamonaviy fan esa bunday fikrlarga ma'lum isbot va asoslar talab qiladi.

Gender sistemasining rivojlanishida insonlar ongi, u mavjud bo'lgan jamiyat muhim o'rin tutadi. Inson tug'ilishidan boshlab gender sistemasi ta'sirining obyekt bo'ladi: jamiyatdagi ramziy udumlar, tug'ilgan bolaning jinsi, kiyimining rangi, o'yinchoqlari va h.k. Ko'rinib turibdiki, bunda "ayolga oid" va "erkakka oid" degan ramziy ma'nolar vujudga keladi.

Hozirgi kunda "gender" so'zi, avvalo, ijtimoiy-psixologik jinsni, insonning jamiyatdagi axloqi va uning qanday qabul qilinishini bildiradi. Gender farqlanish sotsial sharoitlar, ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'langan. Masalan, XX asr boshida pushti rang o'g'il bolaga, moviy rang qizlarga mos deb hisoblangan. Bu konsepsiya 30-yillar oxiriga kelibgina o'zgaragan. Sotsiolingvistik tadqiqotlar insonning nutqi ham ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liq holda ana shunday o'zgarishlarga uchraganligidan dalolat beradi. R.Lakoffning ta'kidlashicha, bola gapirishni boshlashidan onasining ta'siri ostida bo'ladi. Bolalar onasi qaysi tilda va qanday uslubda gapirsa, bola ham xuddi shunday gapira boshlaydi. Masalan, Yaponiyada bolalar besh yoshgacha hamma uchun bitta rodni, ya'ni ayollarga oid rodni qo'llaydilar. Bola besh yoshdan o'tib ulg'aygan sari uning nutqi mukammallashib boradi [Lakoff, 1975: 41].

O'zbeklar nutqida erkak va ayollar nutqining leksik, frazeologik jihatdan xoslanishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu, albatta, tabrik matnlarida ham namoyon bo'ladi. Tabrik matnlari turli ijtimoiy holatda turlicha shakllanishi mumkin. Ularning yoshga nisbatan qo'llanilgan shakli boshqa ijtimoiy holat, masalan, jinsga nisbatan (gender) qo'llanmaydi. Biroq bu dolzarb mavzu ayrim kuzatishlarni hisobga olmaganda uzoq vaqt tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib keldi. Ayollar va erkaklar nutqi orasidagi farqli xususiyatlar masalasi bo'yicha Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlari tillari misolida, shuningdek, yapon, rus, gruzin tillari materialida qator tadqiqotlar mavjud. Turkiyshunoslikda bu borada N.I. Grodekov (qozoq va qirg'izlar misolida), E. D. Polivanov (Samarqand eroniylarining o'zbekcha nutqi

misolida), A. N. Samoylovich (qozoqlar va oltoylar misolida)larning kuzatishlari, shuningdek, qator turkiyshunos-dialektologlarning asarlarida mazkur masala bilan bog‘liq ko‘plab qaydlar bor.

Muloqotning gender xoslanishi ta‘sir birliklari orasida muhim ahamiyat kasb etadi. Erkak va ayol biologik va fiziologik tomondangina emas, balki muloqot xulqi (muomala tarzi, usuli) jihatidan ham farqlanadi, albatta. Masalan, o‘zbek xotin-qizlari nutqiga xos aylanay, girgittan, o‘rgilay, qoqindiq kabi so‘zlar ijobiy ma‘no nozikligini ifodalovchi leksik vosita sanaladi. Ular ko‘proq kekxa ayollar tomonidan qo‘llanadi. Shu o‘rinda tabrik matnlarining gender xususiyatlari haqida gap borar ekan, bunda erkak va ayollarga tegishli o‘ziga xos fe‘l-atvor, madaniy va ijtimoiy bog‘liqlik va farqlarni ifoda etuvchi ana shunday o‘ziga xos so‘zlar haqida to‘xtalish joiz. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, erkak va ayollarning nutqiga umumiy ta‘rif berilganda erkaklarning nutqi dag‘al, ayollarning nutqi esa yumshoq, muloyim bo‘ladi. Shu jumladan, o‘zbek ayollari va erkaklari o‘rtasida ham bu farq yaqqol bilinib turadi. Misol tariqasida, tug‘ilgan kun tabriklarining gender xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz:

Tug‘ilgan kun uchun erkak kishi tomonidan o‘rtog‘iga bildirilgan tabrik:

Tug‘ilgan kuning bilan tabriklayman! Sog‘lik, salomatlik, ishlaringda rivoj tilayman. Do‘stligimiz mustahkam bo‘lsin. Yaxshi-yomon kuningda o‘zim yelkadoshman, yoningda turib beraman. Doim mard, jasur yaqinlar davrasida bo‘l.

Tug‘ilgan kun uchun ayol kishi tomonidan dugonasiga bildirilgan tabrik:

Tavallud ayyomingiz bilan tabriklayman, suyuqli dugonajon! Baxt, salomatlik, bahoriy iliqlik, orastalik va hayotiy quvvat sizga yo‘ldosh bo‘lsin, aylanay! Har doim baxtdan yuzingizda quvonch quyoshi balqib tursin. Ajoyib baxt, abadiy yoshlik va go‘zallik, cheksiz quvonch, mehr-oqibat, ko‘tarinki kayfiyat hamroh bo‘lsin!

Ko‘rinadiki, ayollar nutqida badiiy uslubga yaqin so‘zlar, turli o‘xshatishlar ko‘p uchraydi. Erkaklar nutqi esa rasmiy uslubga monand, qisqa, aniq, lo‘nda bayon etiladi. Yuqoridagi 1-misolda yelkadoshman, yoningda turib beraman so‘zlari erkaklar nutqiga xos bo‘lib, o‘zbek ayollari bunday so‘zlarni muloqotda qo‘llamaydilar. Bundan tashqari ifoda uslubining qisqaligi, sensirab murojaat qilish ham ko‘proq erkaklar nutqida uchraydi. Tabrik matnida qo‘llangan mard, jasur yaqinlar davrasida bo‘lish birligi esa tabrikning erkak kishiga nisbatan bildirilganligini anglatadi, negaki o‘zbek madaniyatida mardlik, jasurlik, botirlik kabi xususiyatlar erkak kishining sifatleri hisoblanadi. Keyingi berilgan misolda ifodaning mayinligi, muloyim tarzda bayon etilganligi, shuningdek, suyuqli, aylanay birliklarining qo‘llanilishi bu nutqning ayol kishiga tegishli ekanligini bildirib turibdi. Dugonajon, quvonch quyoshi kabi birliklar esa nutqning aynan ayol kishiga yo‘llanganligini ifoda etadi. Demak, xulosa qilishimiz mumkinki, har bir madaniyatda erkak va ayollar nutqi o‘ziga xos bo‘lib, nutqning gender xoslanishi muloqot vaziyati, tarzi, o‘rni, shuningdek, shaxsning madaniy va ma‘naviy saviyasi, axloqi kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Demak, kishilar jamiyatda yashash jarayonida undan ma‘lum bir andazalarni oladilar, o‘sha ijtimoiy muhitga mos tarzda harakatlanib, hayotda ba‘zi sotsial vazifani bajaradilar. Har qanday shaxs o‘zining bajarib turgan ijtimoiy imkoniyatlariga muvofiq ravishda me‘yoriy so‘zlash majburiyatiga ega bo‘ladilar, bu nutq esa so‘zlovchi bajarayotgan ijtimoiy vazifa xususida ma‘lumot beradi. Buni nutqning sotsial xoslanishi deb yuritish ham mumkin. Ma‘lum ijtimoiy vazifa bajaruvchi har qanday shaxs nutqi kasb-kor, yosh, jins nuqtayi nazaridan maxsus til belgilariga ega bo‘ladi. Shu ma‘noda matnning, xususan, tabrik matnlarining gender xususiyatlarini tahlil qilish bugungi kun tilshunosligidagi muhim vazifalardan hisoblandi. Tabrik matnlarining gender xoslanishini o‘rganishda erkak va ayollarga tegishli o‘ziga xos fe‘l-atvor, mentalitet, madaniy va ijtimoiy bog‘liqlik hamda tafovutlar inobatga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduxalilova D., Rahmatov F., Xudayberdiyeva Z. 2021. Frazologiyada gender muammosi. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. VOLUME 2 | ISSUE 6 | 1341-p.
2. Lakoff R.T. 1975. "Language and Woman's Place". New York. Harper and Row . P. 41-48-49.
3. Kurbanova M. 2014. Genderolingvistik tadqiq yangi paradigma sifatida. O‘TA, № 2. B 43.



4. Mahmudov N. 2016. O‘zbek tilshunosligining bugungi muammolari. “O‘zbek tilshunosligi: taraqqiyoti...istiqbollari” mavzusidagi Respublika Ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Toshkent: “Mumtoz so‘z”, B 156.
5. Sharipova O‘., Yo‘ldoshev I. 2016. Tilshunoslik asoslari. Toshkent –B 80.
6. Yo‘ldasheva X. 2017. O‘zbek tarixiy romanlarining sotsiolingvistik tadqiqi. Fals.dok.(PhD) diss. Toshkent., B 20.